

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

"EKOLOGIYA VA GEOGRAFIYA" KAFEDRASI

"TASDIQLANDI"

O'quv ishlari bo'yicha

prorektor

_____ F.Sharipov

2020 yil _____ «___»

TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR

fanidan o'quv-uslubiy majmua

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lif sohasi: 110000 – Pedagogika

Bakalavriat yo'nalishi: 5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi

GULISTON 2020

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 20 yil _____ dagi _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Tabiiy geografik jarayonlar" o'quv fani dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti g.f.n., **Z.A.Amanbayeva**

GulDU "Ekologiya va geografiya" kafedrasi katta. o'qitituvchisi
M.M.Axunboboyev

Taqrizchilar: GulDU "Ekologiya va geografiya" kafedrasi dotsenti g.f.n.,
X.E. Xidiraliyev

O'quv-uslubiy majmuasi Guliton davlat universiteti o'quv uslubiy kengashining 2020 yil _____ avgustdagi 1- sonli qarori bilan tavsiya etilgan.

USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI

1. Ma’ruza mashg’ulotlari.....	4
2. Amaliy mashg’ulotlari.....	15
3. Labaratoriya	23
4. Mustaqil ta’lim mashg’ulotlari.....	37
5. Glossariy.....	38
6. Ilovalar	39

1-MAVZU. KIRISH. TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR HAQIDAGI TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Reja:

1. Predmetning dolzarblik darajasini so'zlab bering.
2. Fanning maqsadi nimadan iborat?
3. Fvnning vazifalari qanday masalalarning yechimiga qaratilgan?
4. Fan bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
5. "Tabiiy geografik jarayonlar" fani yuzasidan talabalar qanday vazifalarni uddalay olishlari kerak.
6. "Tabiiy geografik jarayonlar" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini so'zlab bering.

Endogen va ekzogen kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan barcha hodisalarning aksariyat qismi tabiiy geografik jarayonlar tarzida yuz beradi. Demak tabiiy geografik jarayonlar, tabiatdagi modda va energiya o'zgarishlari, shakl o'zgarishlari, hamda rivojlanishiga sabab bo'luvchi barcha turdag'i hodisalardir. Ular tashqi tuzilishi, miqyosi va albatta shakllanishi jihatidan turlicha (karst, suffoziya, surilma, eroziya, botqoqlanish, sho'rланish, ikkilamchi sho'rланish, muzliklarning harakati tufayli yuzaga keladigan jarayonlar v.x. kabi) tarzda o'z ta'sirlarini o'tkazadilar. Shu tariqa ularning tabiatdagi tutgan roli ham bir - birlaridan farqlanadi.

Fanning vazifalari:

- tabiiy geografik jarayonlarni o'rganishning dolzarblik darajasini aniqlash va genetik jihatdan tasniflash.

- tabiiy geografik jarayonlarning turlarini o'rganish.

Tabiiy geografik jarayonlarni o'rganishning ilmiy, amaliy ahamiyatini aniqlash.

Tabiiy geografik jarayonlar fani talabalarga quyidagi bilimlarni beradi:

- tabiiy geografik jarayonlar haqida tushuncha berish fanning maqsad va vazifalari hamda talabalarga beradigan bilimlar tizimini aniqlash;

- tabiiy geografik jarayonlarni shakllanish va rivojlanish omillari, ularni sinflashtirish haqida;

- nurash jarayoni haqida. Fizik nurash, kimyoviy nurash, organik nurash. Ularning bir-birlari bilan bog'liqlik darjasini va maxsulotlari haqida;

- yer osti suvlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar va ularning bir - birlari bilan bog'liqligi (deniz, ko'l va suv omborlari qirg'oqlarining yuvilishi va yemirilishi, daryo qirg'oqlari va o'zanlari bo'ylab yuz beruvchi eroziya, sel hodisasi) haqida;

Fan bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar. Ular quyidagilarni bilishlari lozim:

- kursning maqsad va vazifalarini, tadqiqot usullarini;
- tabiiy geografik jarayonlarning shakllantirish omillarini, sinflashtirish belgilarini;
- turli xil omillar ta'sirida shakllanadigan va rivojlanadigan tabiiy geografik jarayonlarni, ularning keng tarqalgan hududlarini, ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini;
- har bir tabiiy geografik jarayonning o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlash.

Talabalar quyidagilarni uddalay olishlari zarur:

- har bir tabiiy geografik jarayonni turiga ko'ra o'z joyida aniqlay bilish;

- har bir tabiiy geografik jarayonning kelib chiqish sababalari va maxsulotlarni ajrata bilishni;
- tabiiy geografik jarayonlarning tabiatdagi tutgan o'rni va amaliy ahamiyatini belgilashni;
- tabiiy geografik jarayonlarning oldini olish bo'yicha chora tadbirlar turlarini.

"Tabiiy geografik jarayonlar" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

Ushbu predmet "Umumiyl yer bilimi", "Umumiyl geologiya", "Geomorfologiya", "O'zbekiston tabiiy geografiyasi", "Toponimika", "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi", "Gidrologiya", "Tabiatni muhofaza qilish" kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi va rivojlanadi.

Tabiiy geografik jarayonlarni ilmiy o'rganish tarixi

Tabiiy geografik jarayonlarni o'rganish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Tarixiy davrlarda yashab o'tgan geograflar, tarixchilar o'z zamonalarda bo'lib o'tgan kuchli zilzilalar, vulqon otilishi, sel kelishi, bo'ronlar, qum bo'ronlari, ko'chkilarning yuz berishidan xabar beradilar. Ularning tafsilotlari, keltirgan zararlari xususida yozib qoldirganlar. Jumladan Narshaxiy (X asr), Beruniy (XI asr), Yoqut Xamaviy (XII asr), Zaxiriddin Muxammad Bobur (XVI) shular jumlasidandir.

Tabiiy geografik jarayonlarni ilmiy tarzda o'rganish geografik yo'nalishlar va maktablar ilk shakllanayotgan XIX asrdan vujudga kela boshladi. Bu davrga kelib geografiya fanining qiyosiy bayon yo'nalishiga Elize Reklyu (1830-1905), E.Martoni (1873-1955) kabi olimlar asos soldi. Ushbu yo'nalish asosida Majmuali geografiya maktabi P.P.Semenov Tyan-SHanskiy (1827-1914) rahbarligida, umumiyl geografik maktab D.N.Anuchin (1843-1925) rahbarligida, Yu.M.SHokol'skiy (1856-1940) rahbarligi ostida okeanologiya kabi maktablar shakllandi.

Ayniqsa D.N.Anuchin asos solgan Umumiyl geografik maktab zamirida uning izdoshlari L.S.Berg, A.A.Borzov, A.A.Kruber, A.S.Barkov, B.F.Dobrinin, I.S.Shukin kabi geograf olimlar yetishib chiqdi. Ularning tabiiy geografik jarayonlarni geologik, geomorfologik nuqta'i nazardan turib o'rgangan yirik asarlari shakllandi.

Akademik Xabib Muxamedovich Abdullaev maktabi X.M.Abdullaev 1935 yili injener-geolog mutaxassisligi bo'yicha hozirgi Texnika Universitetining geologiya razvedka fakul'tetini tugatgach, O'rta Osiyo industriya institutining foydali qazilmalar kafedrasida dotsent vazifasida ishlab yurish bilan birgalikda umumiyl geografiya kursi bo'yicha ma'ruzalar o'qidi, yuqori lavozimli davlat ishlarida ishladi. Uning G'.A.Mavlonov, N.A.Kenesarin, X.T.To'laganov, A.Sultonxo'jaev kabi gidrogeologiya, injenerlik geografiyasi sohasi bo'yicha yirik izdoshlari bor.

Akademik G'ani Orifxonovich Mavlonov gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi sohasida yirik mutaxassis, shu yo'nalishning O'zbekistondagi yirik vakili va asoschilaridan biridir. U 1960 yili Toshkentda GIDROINGEO (Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi) ilmiy tadqiqot institutini tashkil etishga erishadi. Shu bilan birgalikda leyos yotqiziqlarining shakllanishi va uning asosida yuzaga keladigan tabiiy geografik jarayonlarni o'rganishga katta hissa qo'shgan olimdir. Uning tashabbusi bilan GIDROINGEO ilmiy tadqiqot instituti qoshida, "Injenerlik geodinamikasi" bo'limi tashkil etildi.

1969 yilning oxirida GIDROINGEO ilmiy tadqiqot instituti ishlab chiqarish va olimlar kuchini birlashtirish maqsadida "O'zbekgidrogeologiya" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tarkibiga kiritildi. Bu ishning tashkilotchilar g-m.f.d., professorlar N.N.Xojiboev, X.T.To'laganov, G.V.Kulikov, A.S.Hasanov, g-m.f.n. V.A.Geynts, G.A.Manjirova, M.G.Xo'jaev, M.I.Ismoilov, R.S.Sayfullaev kabi olimlar edi.

GIDROINGEO ilmiy tadqiqot instituti qoshida tashkil etilgan Injenerlik geodinamikasi bo'limi tabiiy geografik jarayonlarni injenerlik geologiyasi nuqta'i nazardan turib taqdim etgan. Bu bo'lim 1960 yillari g-m.f.d.M.P.Kuzminov tomonidan boshqarilgan

bo'lsa, keyinchalik u bir necha tabiiy geografik jarayonlarni o'rganuvchi laboratoriyalarni birlashtiruvchi bo'limga aylantirildi. Bo'lim qoshida dastlab P.M.Karpov, keyinchalik 1972 yildan R.A.Niyozov boshchiligidagi surilmalar "Yonbag'irlar va qiyaliklar turg'unligi" laboratoriyasida, X.V.Vaxobov, V.I.Martem'yanov, B.T.Ismoilov, A.A.Bashkirova, V.D.Minchenko, faoliyat ko'rsatdi. P.M.Karpov keyinchalik A.P.Pushkorenko boshchiligidagi sel jarayonlari "Quyuq oqim o'choqlari" laboratoriyasida o'rganildi. Bu laboratoriyyada geologlar bilan birgalikda geograflar S.R.Saidova, SH.Xo'jaev, V.Kim kabi olimlar faoliyat yuritdilar.

Ushbu laboratoriya suv omborlar qirg'og'ining abraziya tufayli qayta shakllanish muammosini o'rganishga ham katta e'tibor qaratgan holda tadqiqotlar olib bordilar.

Karst jarayoni esa professor M.M.Mamatqulov boshchiligidagi "Karst va speleobiya" laboratoriyasida nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo hududi bo'yicha o'rganildi. Bu laboratoriyyada karst jarayoni asosan geograflar M.A.Xoshimov, A.Alimov, K.R.Aripov, I.A.Otajonov, A.Nizomovlar tomonidan tadqiq etilib, O'rta Osiyoning xususan O'zbekistonning tog'lik xududlarida karst jarayoniining rivojlanish xususiyatlari o'rganildi.

Geomorfologiya yo'naliishi. Ushbu yo'naliishga amerikalik olim U.M.Devis tomonidan asos solingan. U geografik tsikllarni yoshlik, voyaga yetganlik, keksalik davriga bo'lib o'rgandi. Olim tomonidan ushbu davrlar garchand alohida tarzda o'rganilsada, aslida ular tabiatian bir butun, bir-birlaridan ajralmagan holda rivojlanadi, deya uqtiradi.

Geomorfolog V.Penk (1888-1923) barcha yonbag'irlar morfologiyasi tektonik xarakatlar tufayli yuzaga kelishini uqtiradi. Rus olimi M.V.Lomonosov esa rel'efning tashqi va ichki kuchlar ta'sirida shakllanishiga urg'u beradi. Uning ushbu g'oyasini S.N.Nikitin, A.P.Karpinskiy, A.P.Pavlov o'z asarlarida rivojlanadir. Ushbu tadqiqotchilardan ayniqsa A.P.Pavlovnning "Tekisliklar rel'efi va uning yer usti va osti suvlari ta'sirida o'zgarishi haqida" nomli kitobi juda qiziqarlidir.

Keyinchalik O'zbekistonda Sankt Peterburg hamda Moskva geomorfologlar maktabi nomoyondalarining izdoshlari sifatida bir guruh O'zbekistonlik geomorfolog olimlar shakllandi.

Ular Yu.A.Skvortsov, A.Yu.Alferov, N.A.Kochay, Yu.Ya.Kuznetsov, O.Yu.Poelavskaya, G.F.Tetyuxin, B.V.Yaskovich kabi olimlar edi. Ushbu olimlar O'zbekiston O'rta Osiyoning geografik tuzilishi haqidagi ilmiy g'oyalarni yoritish arafasida ayrim tabiiy geografik jarayonlar xususida ham o'z fikrlarini bildiradilar. Keyingi davrlarda tektonik gravitatsion, gayatsial, suffoziya, eroziya, akkumlyatsiya, eol kelib chiqishga ega bo'lgan tabiiy geografik jarayonlar B.A.Fedorovich, A.B.Boboev, M.Sh.Shermatov, X.Vaxobov, A.Rafiqov, A.N.Nig'matov kabi olimlar tomonidan mufassal tadqiq etiladi.

1. I.G.Gerasimovning rel'ef yer yuzi formalarini o'lchamiga ko'ra necha guruhga ajratgan?
2. D.S.Kizevalter va E.K.Qodirov tasniflari haqida so'zlab bering.
3. M.M.Mamatqulov tasnifi haqida so'zlab bering.
4. A.Rafiqov, H.Vaxobov, A.Qayumov, M.Azimov tomonidan taklif etilgan tasnifni, yuqorida qayd etilgan tasinflarga solishtirib baholang.

2-MAVZU: TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLARNI HOSIL BO'LISHIGA KO'RA TASNIFFLASH. UNGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

Raja:

1. Tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo'lismiga ko'ra tasniflash.
2. Unga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Tasniflash o'ziga xos o'rganish metodi bo'lib, u har bir fanning asosini tashkil etadi. Shu boisdan D.M.Mendeleev ilm tasniflashdan iboratdir, deya uqtiradi. Tabiiy geografik jarayonlarni o'rganish asnosida ham ularni kelib chiqishiga ko'ra bir-birlariga yaqinlarini

guruh-guruh qilib jamlagan va ajratgan holda o'rganish, ularni tadqiq etishni yengillashtiradi. Shu boisdan turli davralarda, turli fanlarni tadqiq etuvchi olimlar tabiiy geografik jarayonlarni har xil nuqta'i nazardan turib tasniflaganlar.

I.P.Gerasimov (1986) o'zining rel'ef yer yuzi formalarini o'lchamiga ko'ra uch guruhga ajratadi. Geotektura – materiklar, okeanlar joylashgan botiqlar, morfostrukturalar – tog' tizmalari, tog' oraliq botiqlari, tekisliklar, morfoskul'ptura – ekzogen jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan rel'ef ko'rinishlari. I.P.Gerasimov rel'ef ko'rinishlarini tasniflar ekan, ularni tektonik endogen va ekzogen kuchlar bilan bog'liq holda sodir bo'lismus ususiyatini ta'riflaydi.

Yana bir geomorfologik tasniflashda es D.S.Kizeval'ter rel'ef formalarini guruhlashtiradi. Natijada tabiiy geografik jarayonlarning ham endogen va ekzogen kuchlar ta'sirida shakllanuvchi guruhlari genetik turlar tarzida o'rganiladi.

Geomorfologlar turli turkumdag'i yotqiziqlarni ham kelib chiqishiga ko'ra guruhlarga ajratar ekan, ularning shakllanishida tashqi ta'sir tufayli yuzaga keluvchi (suv, shamol, quyosh nuri, muzliklar va h.k.) tabiiy geografik jarayonlar muhim rol o'ynaydi deya ko'rsatma beradilar va ularni turlarga ajratadilar.

Tabiiy geografik jarayonlarning eng mukammal va ma'qul tasnifi prof.A.Rafiqov, H.Vaxobov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, bu yerda muallif tabiiy geografik jarayonlarni ikki yirik guruhga ajratadi. Dastlabkisi tabiiy omillar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlar, ikkinchi-guruh sun'iy omillar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlardir.

3-illova

Nº	Tabiiy geografik jarayonlarning xosil bo'lismiga ko'ra guruhlarga ajralishi	Tabiiy geografik jarayonlarning turlari
1	Tektonik xarakatlar tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar	Tog' xosil bo'lismi, yer yuzasining cho'kishi kabi planetamizda yuz beruvchi tabiiy geografik jarayonlarning barchasi bevosita ba'zan bilvosita tektonik xarakatlar bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga keladi.
2	Zilzilalar tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar	yer yuzasining silkinishi, yorilishi, ba'zan egilib-bukilishi loyli vulqonlarning vujudga kelishi.
3	Vulqonlar otilishi tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar	Lavalarning oqib chiqishi, vulqon tutunlari, bombalari, kollarining otilishi yer silkinishi, vulqon konuslarining shakllanishi va h.k.
4	Iqlim omillari ta'sirida yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar	Nurash, deflyatsiya, korraziya.
5	Gidrologik va gidrogeologik oqim tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlar	O'zan va qirg'oq eroziysi, karst, suffoziya, abraziya, botqoqlanish, sho'rланish.
6	Gravitatsion kuch yetakchiligidagi yuzaga keladigan tabiiy geografik jarayonlar	Surilma, soliflyuktsiya, ko'chki
7	Muzliklar ta'sirida yuzaga keladigan tabiiy geografik jarayonlar	Termoabraziya, termoeroziya, soliflyuktsiya, termokarst, termoakkumlyatsiya, al'tiplinatsiya ekzaratsiya
•	Antropogan ta'sir tufayli yuzaga keladigan tabiiy geografik jarayonlar	Sho'rланish, ikkilamchi sho'rланish, botqoqlanish, cho'llanish, agroeroziya, suv omborlar qirg'og'ining abraziyaga uchrashi.

3-MAVZU: QUYOSH NURI VA SUV TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR

Reja:

1. Nurash va uning turlari.
2. Vaqtincha va muntazam oqar suvlar ta'sirida tabiiy jarayonlar.
3. Sel va jarlanish haqida tushuncha berish

Nurash ekzogen jarayonlar turkumiga mansub bo'lib, u harorat ko'rsatkichining tebranishi, suv, shamol, muz, o'simliklar, hayvonot dunyosining mexanik, fizik yoki kimyoviy ta'sirida o'zgarishi natijasida bir xolatdan ikkinchi xolatga o'tishi va uvalanishi tufayli yuzaga keladi.

Nurashning fizik, ximik va biologik turlari mavjud.

Fizik nurash deganda, tog' jinslarining havo harorati ta'sirida (sutka yoki soatlar mobaynida keskin o'zgarishi tufayli) bo'laklarga ajralishi tushuniladi.

Uvalanish havo haroratining ko'tarilishi tufayli tog' jinslari xajmining kengayishi, sovishi, va aksincha sivilishi, mayda bo'lakchalarga ajralishi tufayli yuzaga keladi. Tog' jinslarining quyosh nuri ta'sirida qizishi, uning rangiga ham bog'liq. To'q tusli (qora, jigarrang va h.k.) tog' jinslari nurni o'ziga ko'proq qabul qilganligi uchun ko'proq, oq yoki unga yaqin tusdagi tog' jinslarining quyosh nurini ko'proq qaytarishi va qisman o'ziga qabul qilishi tufayli qora tusli tog' jinslariga nisbatan sustroq darajada qiziydi. Demak, qora rangli tog' jinslari quyosh nuri ta'sirida ko'proq uvalanadi, oq rangli tog' jisnlarida esa nurash nisbatan kamroq rivojlanadi. Ushbu jarayon tog' jinslarining yuza qismida faolroq kechganligi tufayli nurash darajasi asosan tog' jinsining sirtidan ichkari qismiga tomon kamayib boradi.

Ximik nurash. Nurashning bu turi asosan suv, havo (SO_2 va O_2) hamda mikroorganizmlar ta'sirida kechadi. Ma'lumki, barcha tog' jisnlari suv ta'sirida ma'lum miqdorda eriydi. Ayniqsa, suv tarkibida erigan korbonat angdrid miqdori ko'paysa, bu jarayon yanda kuchayadi.

Biologik nurash. Tirik organizmlarning tog' jinslariga ta'siri natijasida biologik nurash sodir bo'ladi. Tog' jinslari tarkibidagi mayda yoriqlar bo'ylab ungan o'simlik, buta ba'zan archa kabi tirik tanali daraxtlar ulg'aya borib, yoriqlarning kengayishiga, natijada tog' jinslarining parchalanishiga sababchi bo'lsa, ikkinchidan tog' jinslarining tarkibiga ta'sir etadigan eritmalar ajratib chiqarib, ularni yemiradi, natijada tog' jinslari kichik bo'laklarga ajralib, parchalanib ketadi.

Vaqtincha suv oqimi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan oqimlar asosan aridiqlimli mintaqalar uchun o'ta xususiyatlidir. CHunki vaqtincha oqar suvlar erigan qor suvi.yu yomg'ir, do'l tushishi, yoki yer osti suv zaxiralarining qisqa muddat mobaynida yer yuzasiga ko'tarilishi tufayli yuzaga kelgan suv manbalari-buloqlar (efemer buloqlar) ta'sirida yuzaga keladi.

Vaqtincha oqar suvlar ta'sirida tuproq eroziyasining asosiy ko'rinishi tarzida jarlarni vujudga keltiradi.

Jarlanish - respublikamiz yer resurslaridan samarali foydalanish ishlariga jiddiy putur yetkazuvchi tabiiy geografik jarayon tarzida T.S.Muhamedov (1965,1993), B.R.Jo'raev (1977), X.M.Mahmudov (1980), A.A.Xonazarov (1983), S.R.Saidova (1983), A.N.Nigmatov (2005) lar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Mutaxassislarining e'tirof etishlaricha, bu jarayon ayniqsa Zarafshon vodiysining o'rta qismlarida o'ta rivojlangan bo'lib, birgina Oqtepasoy va Andoqsoy oralig'idagi 220 kv.km. maydonda 100 dan ortiq jarlanish o'chog'i kuzatiladi (Baratov P. 2003).

Tog' va tog' oldi xududlarida soylar bo'ylab qisqa vaqt ichida juda katta tezlik bilan oqib keluvchi qum, shag'al, tog' jinsi bo'laklari, o'simlik ba'zan daraxt tanalari aralash shakllangan loyqa suv oqimi **sel deb ataladi**.

Shu boisdan sel tushunchasi arab tilida “sayl” o’zbek tilida toshqin suv ma’nosini beradi. Demak, xalq tabiiy geografik terminiga aylangan bu ibora zamonamizda ilmiy lug’aviy ma’no beruvchi xalqaro tushunchaga aylangan bo’lib, u zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ham sel deb aytildi. Yevropa mamlakatlarida sel tushunchasi mur tarzida ishlatalishi ma’lum.

Selning geografik tarqalishi asosan quruq iqlimli, yog’in qisqa muddat ichida ko’p yog’adigan xududlar bo’ylab ko’p kuzatiladi. O’rta Osiyo tog’li, tog’ oldi xududlari bo’lgan, Zarafshon, Farg’ona, Qashqadaryo, Suxandaryo vodiylarida, Kopetdog’da, Tyanshanning G’arbiy va Shimoliy tizmalarida, Kavkazda, G’arbiy Yevropa, AQSH, Janubiy Amerikaning tog’li xududlarida hamda Yaponiya, Xitoy, Mo’g’ilistonning ayrim xududlarida kuzatiladi.

Savollar:

1. Nurash va uning sabablari haqida tushuncha bering.
2. Nurashning necha turi mavjud?
3. Fizik nurashi va uning xususiyatlari haqida so’zlab bering.
4. Tabiatda ximik nurash qanday sodir bo’ladi?
5. O’zansiz oqim qanday hususiyatga ega?
6. Jarlanish va uning geografiyasi haqida tushuncha bering.
7. O’zan eroziyasi natijasida yuz beruvchi tabiiy geografik jarayonlar hamda relief formalari hususida tushuncha bering.

4-MAVZU: GIDROLOGIK VA GIDROGEOLOGIK OQIM HAMDA GROVITATSION KUCH TUFAVYLI YUZAGA KELADIGAN TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR

REJA:

1. Yer usti va yer osti suvi ta’sirida yuzaga keladigan jarayonlar.
2. Suv va gravitatsion kuchlar ta’sirida yuz beruvchi jarayonlar.
3. Karst, suffyuziya, o’zan va qirg’oq eroziyasi tabiiy jarayonlariga tavsif

Gidrologik va gidrogeologik oqim o’zaro chambarchas bog’liq holda shakllansada, ular tabiiy geografik jarayonlarning shakllanishida turlicha ahamiyat kasb etadi.

Gidrologik oqim deb, suvning yerning yuzasi bo’ylab harakatlanayotgan qismiga aytildi. Gidrologik oqimni o’z navbatida o’zansiz va o’zanli deya ikki guruhga bo’lib o’rganish mumkin.

O’zansiz oqim. Erigan qor suvi, yomg’ir yog’ishi, do’l tushishi tufayli qiyalama yon bag’irlar bo’ylab, bir necha mm qalinlikda yer yuzasini sidirg’asiga qoplab oluvchi oqim shakllanadi. Ular ba’zan mayda jo’yakchalar xosil qilsada, bu jarayon uzoq vaqt davom etmaydi. Shu boisdan ushbu mayda juyakchalar qurigandan keyin nurash, deflyatsiya va boshqa jarayonlar ta’sirida o’zgarib yemirilib ketadi.

O’zansiz oqim garchand qisqa muddat mobaynida faoliyat ko’rsatsada, yon bag’irlarning yemirilishi, yemirilgan jinslarning oqim bilan birgalikda qo’shilib olib ketilishi, boshqa joyga olib borib yotqizlishi, to’planishi kabi jarayonlar yuz berad. Yon bag’irlar bo’ylab karbonatli, sul’fatli va xloridli jinslar ochiq uchragan holatlarda esa karst jarayoni rivojlanadi.

O’zanli oqim. Mayda jo’yakchalar bo’ylab oqib tushadigan suvlarning qo’shilishidan yon bag’irning quyiroq qismida nisbatan birmuncha keng va chuqurroq bo’lgan jo’yakchalar vujudga keladi. Bunday chuqurliklar bo’ylab harakatlanayotgan suv o’zanli oqim deyiladi. Chunki oqim xarakatlanayotgan tabiiy pastqamlik o’zan o’rnini o’taydi.

O’zanli oqimni shartli ravishda ikki guruhga ajratgan holda o’rganishimiz mumkin: 1) vaqtincha suv oqimi, 2) doimiy suv oqimi. Ularni tabiiy geografik jarayonlar shakllanishida tutgan o’rniga ko’ra alohida-alohida tarzda tavsiflashimiz mumkin.

Vaqtincha suv oqimi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan oqimlar asosan aridiqlimli mintaqalar uchun o'ta xususiyatlidir. Chunki vaqtincha oqar suvlar erigan qor suvi.yu yomg'ir, do'l tushishi, yoki yer osti suv zaxiralarining qisqa muddat mobaynida yer yuzasiga ko'tarilishi tufayli yuzaga kelgan suv manbalari-buloqlar (efemer buloqlar) ta'sirida yuzaga keladi.

Vaqtincha oqar suvlar ta'sirida tuproq eroziyasining asosiy ko'rinishi tarzida jarlarni vujudga keltiradi.

Surilma. Surilma deb, ko'l, dengiz, jar shuningdek suv omborlari, kar'er, kanallarning tik qirg'og'ida, tog' jinslari massasining tog' yon bag'irlari bo'ylab pastga surilib (sirg'anib) tushishiga aytildi.

Surilma tushunchasi sof turkiy o'zakdan iborat bo'lgan xalq tabiiy geografik termini bo'lib, surilish, sirpanish kabi mazmun beradi. Bu tushuncha ushbu jarayonning tabiiy xususiyatlari va xududiy geografik tarqalish jixatlaridan kelib chiqqan holda shakllangan.

Ervchan tog' jinislari suv ta'sir etishi tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayon **karst deb ataladi**. Ushbu atama Bolqon yarim orolidagi oxaktoshli (yura davriga xos) Karst platosi nomidan kelib chiqqan bo'lib, u detoponim, ya'ni geografik nomlarning terminlarga, oddiy turdosh otlarga aylanishi tufayli yuzaga kelgandir. Bu jarayon tabiatda, rel'efning shakllanishi, gidrologik va gidrogeologik oqimning o'zaro aloqasi, qazilma boyliklarning shakllanishi va h.k. jarayonlarining shakllanishid muhim rol o'ynaganligi uchun u XIX asrning oxirlari va XX asrlarning dastlabki damlaridan e'tiboran izchil o'rganila boshlandi.

SAVOLLAR:

1. Gravitatsion kuch tufayli yuz beruvchi tabiiy geografik jarayonlar xususida tushuncha bering.
2. Surilmalar qanday geografik tabiiy sharoitlar asosida vujudga keladi?
3. Surilmalarning nechta genetik-morfologik turi mavjud?
4. O'zbekistonda karst jarayonini o'rgangan olimlarni ko'rsating.
5. Karst va uning metologik turlari haqida tushuncha bering.
6. Psevdokarst yoki suffoziya haqida tushuncha bering.

5-MAVZU. EOL JARAYONLAR. MUZLIKlar BILAN BOG'LIQ HOLDA SHAKLLANUVCHI TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR

Reja:

1.Eol jarayonlar.

2.Muzliklar bilan bog'liq holda shakllanuvchi tabiiy geografik jarayonlar

Ma'ruza matni

Havo massalarining gorizontal xarakati tufayli yuzaga keluvchi kuch shamol deb ataladi. U iqlim faktoridir. Chunki haroratni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib, havo tarkibidagi namni o'zgarishiga kunlarning isishi yoki sovishiga sababchi bo'ladi. Havo massalari xarakatlanganda yer yuzasiga ishqalanib, uni yemiradi, mineral zarrachalarni bir joydan ikkinchi joyga olib ketadi va to'playdi.

Emirish. Shamol o'z xarakati mobaynida yer yuzasiga ishqalanar ekan, uning tashqi ta'sirga serbardash bo'limgan xududlarni yemira boshlaydi. SHamolning yemirish ishi deflyatsiya va korraziya tarzida ro'y beradi.

Deflyatsiya – lotincha deflation- puflash, puflayman degan ma'no beradi. Bu jarayon tufayli tog' jinslarining shamol ta'sirida yemirilib, maydalangan zarrachalarning boshqa joylarga ko'chirilib ketilishi kuzatiladi.

Yer sharining 11 % ga yaqin qismi muzliklar bilan qoplangan. Joylashgan o'rni hamda ayrim tabiiy geografik xususiyatlari ko'ra ular ikki geografik guruhga bo'lainadi: materik muzliklari va tog' muzliklari.

Barxanlar. Qumli cho'llar bo'ylab shamol yo'nalishi bo'yicha yoysimon yoki yarim yoysimon tarzda shakllangan 5-20 m balandlikdagi qum tepalar. Ularning shamolga ro'baro' tomon qiya, shamolga teskari yon bag'irlari tik bo'ladi.

Gidrolakkolitlar shimoliy qutubga yaqin, abadiy to'nloq yerlarda ko'plab uchraganligi sababli, o'sha joyda yashovchi maxalliy axoli yoqtular tomonidan "bulgunnyax" deya ataladi. Yoqtular turkiy xalqlar tarkibiga kirganligi sababli, bu xalq termini mazmunan turkcha bilqilloq yoki bulkullak so'ziga juda yaqin turadi. CHunki gidrolakkolitlar tabiiy xususiyatiga ko'ra bilqilloq yoki bulkullak so'zining etimologiyasiga to'g'ri keladi.

Termoabaziya. Ma'lumki dengiz yoki ko'l qirg'oqlari bo'ylab to'lqinning yemiruvchan kuchi ta'sirida shakllanadigan jarayon abraziya deya ataladi. SHu boisdan abraziya lotincha abrazio – sidirish degan ma'noni beradi. Bu jarayon tufayli qirg'oq bo'yining yemirilishi, ba'zan tik holatga kelishi yoki tekislanishi kuzatiladi.

Termoeroziya – abadiy muzlab yotgan xududlarning oqar suv ta'sirida erib yemirilishi tufayli vujudga keladi. Natijada jarliklar, pastqamliliklar, vodiylar vujudga keladi. Termoeroziya tufayli yuz berayotgan yemirilish chizig'i ko'pincha termokarst, tufayli hosil bo'lgan pastqamliliklar tomon yo'nalgan bo'ladi.

Soliflyuktsiya – bu tushuncha lotincha ma'no kasb etib, solum-tuproq, luchus-oqim degan mazmun beradi. Demak, soliflyuktsiya jarayoni tufayli muzlagan yonbag'irlarning harorat ta'sirida erib oqmalar tarziga kirishi tushuniladi. Soliflyuktsiya baland tog'larda uchragani kabi abadiy muzlab yotuvchi xududlarda ham kuzatiladi.

Termokarst. Ushbu jarayon abadiy muzloq yerlarning harorat natijasida erishi tufayli yuzaga keladi. Muzlab yotgan grunt erigach uni qoplab olgan qatlamlar cho'kib, yer yuzasida tog'arasimon botiqlar, vodiylar, daxanalar shakllanadi.

Zandr dalalari. Datcha sandur-qum, yoki islandcha sand-qum ma'nosini beradi. Materik muzliklarining chekka qismlarida morena jismlarining muz suvlari yuvib ketishi va qayta yotqizishi natijasida hosil bo'lgan qum, shag'al, qisman xarsang, chag'ir toshlar aralash tekisliklar.

Kam – ushbu so'z slavyancha kamen tosh, xarsang ma'nosini beradi. Kamlar genetik xususiyatlariga ko'ra, ozlarni eslatadi. Ya'ni flyuvoglyatsial yotqiziqlarning kam-qat tarzda shakllanishi tufayli vujudga keladi. Bu borada bir necha ilmiy qarashlar mavjud bo'lib, ularga ko'ra kamlar qadim geologik davrlarda muzlik ustida, balki muzlik ostida shakllangan ko'llar o'rnida xosil bo'lgandir.

Трог. Немецкое слово означает трог-тогора. В результате движения ледников дно долины «обрабатывается» резьбой по кругу. Поэтому основная часть желобов широкая, а боковой откос крутой.

Kar (shotland tilida corrie) – qush (qaldirg'och) uyasini eslatuvchi botiqlardir. Karlar tsirklarning yuqori qismini tashkil etgan holda, devorlari tik, tub qismlari esa, yotiq, egarsimon bo'lgan holda, alohida ajralib turuvchi firn qoplamidan iborat muzliklari mavjud bo'ladi, relikt tarzdagi karlar tubida esa kichik tog' ko'llari kuzatiladi.

Карлинг. Пирамидальные, треугольные вершины из-за движения снега и льда. В задней стене глухие более вертикальны в этом направлении.

Muzlik tsirki – tog'larning yuqori qismi bo'ylab amfiteatr shaklida bir tomoni ochiq holda rivojlangan, tovoqsimon tabiiy chuqurlik. Muzlik tsirkilari sovuqdan nurash, hamda muzlik xarakati tufayli rivojlanadi. SHu boisdan tsirklarning tub qismida doimo muzliklar uchraydi. TSirklarning devorlari bo'ylab karlar rivojlanadi. Qadimgi relikt tsirkilar qor chizig'idan quyida ham joylashishi mumkin. U holatda ushbu turkumdag'i tsirklarning shakllanishida qadimgi tog' muzliklarining ishtiroki seziladi.

Ekviplen – cho'qqilarning muz ta'sirida yassilanishi. Muzliklar o'z xarakati davomida nafaqat vodiylarni balki, firn oblastidan quyida turuvchi ayrim cho'qqilarni ham bosib o'tish jarayonida ularni silliqlab, uchqir xolatlardan, yassi, to'mtoq xolatga keltiradi.

1-jadval

**Shamol kuchini aniqlash uchun Boforiy tomonidan
tuzilgan xalqaro shakl**

Ballar	Shamolning tezligi sekundiga, metr	Shaolning xususiyatlari
1	0-0,5	Shtil' tinch havo
2	0,6-1,7	Sekin
3	1,8-3,3	Engil
4	3,4-5,2	Kuchsiz
5	5,3-7,4	O'rtacha
6	7,5-9,8	Xunuk
7	9,9-12,4	Kuchli
8	12,5-16,2	Qattiq
9	16,3-18,2	Juda qattiq
10	18,3-21,5	Dovul
11	21,6-25,1	Kuchli dovul
12	25,2-29,0	Ashaddiy dovul
13	29,0 dan ortiq	To'fon

2-illova

Muhokama uchun e'tiborni jamlovchi va muammoli savollar

1. Shamol ta'sirida yuz beruvchi tabiiy geografik jarayonlar haqida tushuncha bering.
2. Deflyatsiya qanday tabiiy geografik jarayon?
3. Shamol kuchi tufayli yuzaga keluvchi qandayrel'ef formalarini bilasiz?
4. Korraziya tabiatda qanday kechadi?
 1. Muzliklar va ularning turlari haqida tushuncha bering.
 2. Materik muzliklari bilan bog'liq holda shakllanadigan tabiiy geografik jarayonlar qanday kechadi?
 3. Materik muzliklari ta'sirida shakllanuvchi rel'ef formalari qanday shakllanadi?
 4. Tog' muzliklari va ularning tabiiy qismlari to'g'risida tushuncha bering.
 5. Tog' muzliklari bilan bog'liq holda yuz beruvchi qanday tabiiy geografik jarayonlarni bilasiz?

6-MAVZU. TEKTONIK KUCHLAR, ZILZILA VA ANTROPOGEN TA'SIR TUFAILI YUZAGA KELUVCHI TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR.

REJA:

1. Tektonik kuchlar va ularning turlari haqida tushuncha.
2. Tektonik kuchlarning tabiatdagi o'rnnini aniqlash

Ma'ruza matni

Tektonik – textovixa – yunoncha so'z bo'lib, qurilish, tuzilish degan ma'noni anglatadi. Tektonik xarakatlar deganda ichki kuchlar natijasida yer qobig'i qatlamlarining siljishi, yotish holatining o'zgarib egilib, bukilishi, uzilishining yuzaga kelishi anglashiniladi. Tektonik xarakatlar tufayli yer po'stining ayrim qismlari xarakatga kelib uzoq geologik davrlar mobaniyda tog' tizmalarining ko'tarilishi, tog'lar orasida botiqlarning shakllanishi sodir bo'ladi.

Shu tariqa o'rganilayotgan tabiiy geografik jarayonlarning barchasi bevosita, balki bilvosita tektonik xarakatlar, tektonik xarakatlar tufayli shakllanuvchi yoriqlar, yoriqlar atrofidagi yaxlitligi susaygan maydonlar bo'ylab yuzaga keladi.

Tektonik xarakatlar tufayli nadviglar, sdviglar, uzilmalar kabi tog' ko'tarilish jarayonida yuz beradigan litologik qtlamlar burmalanishining o'ziga xos ko'rinishlari shakllanadi.

Yer qimirlashi zilzila deb ataladi. Bu jarayon yer po'stining ichki qismidagi tabiiy kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan silkinishlar tufayli vujudga keladi. Har yili planetamizda 100 000 dan ortiq yer qimirlashlari seysmik asboblar yordamida qaydetiladi. Shundan 100 tasi vayron qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan kuchli zilzilalardir. Zilzilalar sodir bo'lishiga ko'ra to'rt guruhga mansub bo'lib, u quyidagicha tasniflanadi:

- Gektonik kuchlar ta'sirida yuz beruvchi zilzilalar;
- Vulqonik kuchlar ta'sirida sodir bo'lувчи zilzilalar;
- Denudatsiya tufayli yuz beruvchi zilzilalar;
- Antropogen ta'sir (portlash, qurilish ishlarida gruntni shibbalash va h.k.) tufayli sodir bo'ladigan zilzilalar.

Ushbu turkum zilzilalar ichida eng havflisi va katta maydonlarni qamrab oluvchi tur birinchi guruhga mansub tektonik zilzilalardir.

Tektonik zilzilalar. Ular ko'proq tektonik xarakatlar faol bo'lgan, tog' ko'tarilish jarayoni to'xtamagan hududlar bo'ylab tez-tez takrorlanib turadi. Silkinish paydo bo'lgan joy zilzila o'chog'i, uning markazi esa gipotsentr deyiladi. Zilzila o'chog'i yer po'stidan 50 km gacha, ba'zan 700 km gacha chuqurlikda bo'lishi mumkin. Gipotsentrning yer yuzasidagi nuqtasi epitsentr deyiladi. Silkinishlar epitsentrda kuchli bo'lib, undan uzoqlashgan sari silkinish kuchi susaya boradi. Zilzila kuchi ko'pgina davlatlarda 12 ballik shkala asosida o'lchanadi. Zilzila kuchi osha borgan sari tabiatda turlicha o'zgarishlar yuz berib, bu jarayonning ko'lami ham osha boradi.

Vulkanik kuchlar ta'sirida sodir bo'lувчи zilzilalar. Bu turdag'i zilzilalar vulqon sodir bo'layotgan chuqurliklarda kechayotgan murakkab jarayonlar, jumladan jerlolardagi to'planib qolgan gazlarning portlashi, magmaning egri-bugri rivojlangan jerlo devorlariga juda katta kuch ostida urilishi tufayli kichik amplitudadagi zilzilalar sodir bo'ladi. Bu holatda zilzila gipotsentri 30-50 km chuqurlikda joylashgan bo'lishi mumkin.

Denudatsiya jarayoni tufayli yuz beruvchi zilzilalar. Yer yuzida sodir bo'lувчи zilzilalarning juda oz qisminigina tashkil etadi. CHunki ular faqat ayrim xolatlardagina yuz beradigan tog'lik hududlardagi yirik surilmalar, o'pirilmalar, ko'chkilar yoki ulkan karst bo'shliqlari shiftining o'pirilib tushishi tufayli sodir bo'ladigan silkinishlar tufayli yuzaga keladi.

Antropogen ta'sir tufayli yuzaga keluvchi zilzilalar. Ushbu turdag'i zilzilalar insonning tabiatga ta'siri tufayli shakllanadi. Kon qazish, injenerlik va xarbiy ishlar maqsadida portlatish ishlarini yo'lga qo'yish, muayyan yuza bo'ylab og'ir yukning juda katta miqdorda to'planishi, masalan yirik suv omborlar qurilishi yoki suv, gaz, neft maxsulotlarining zo'r berib so'rib olinishi tufayli yuzaga keladi. CHunki oxirgi xolatlarda katta kuch bilan bosilish tufayli suv ombor kosasini tashkil etuvchi tog' jinslarining siqilishiva taranglashishi tufayli mavjud bo'lgan tektonik siniqlar rivojlanadi, yangidan shakllanadi va zilzila bo'lishiga olib keladi.

Demak, antropogen ta'yair tufayli ham bir muncha kuchli zilzilalar sodir bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelish imkoniyati yuzaga keladi. Darvoqe'ya antropogen ta'sir tufayli vujudga kelgan zilzilalar Hindiston, AQSH hududlarida kuzatilgan. Ammo ular ham planetamizda yuz beruvchi jalmka zilzilalarning juda oz qisminigina tashkil etadi xolos.

Inson ta'siri tufayli sho'rланish, ikkilamchi sho'rланish, botqoqlanish, agroeroziya, suv omborlari, sun'iy ko'llar qирг'ог'ининг abraziyaga uchrashi kabi tabiiy geografik jarayonlar rivojlanishi mumkin.

Sho'rланish. Qurg'oqchil o'lkalarda sug'orishda suvdan o'ta isrofarchilik bilan

foydanish tufayli yer osti suv sathining ko'tarilib ketishi natijasida yuzaga keladi. Sho'rlanish ayniqsa pastqam joylarda minerallashgan yer osti suvlarining yuzaga ko'tarilishi, ko'llarning yilning issiq fasillarida qurib qolishi tufayli tuproq qoplami bo'ylab xlorid va sul'fat tuzlarining yig'ilishidan kuchayib ketadi.

Ikkilamchi sho'rlanish. Bu tabiiy geografik jarayon obikor dehqonchilik qilinadigan hududlar bo'ylab tuproq qoplami tuzli yoki sul'fatli yotqiziqlar ustida yotgan holatlarda yuzaga keladi. Chunki suvni ekin dalalarini sug'orish maqsadida keragidan ortiqcha holatlarda sug'orish tufayli yuzaga keluvchi nam tuproq qoplaming tag qismida joylashgan tuzli, gipsli qatlamgacha yetib boradi. Natijada ushbu qatlamga ta'sir etgan grunt suvi tuz, gipsni eritib, ma'lum miqdorda sho'rlanadi. Yoz fasli havo xarorati ko'tarilib tuproq yuzasi qurigach, kapilyar kanalchalar orqali nam yuqori tuproq yuzasi tomon xarakatlana boradi va yuzaga yetgach yuqori xarorat ostida parchalanib, kislород va vodorodga ajralib ketadi. Ikkilamchi sho'rlanishni oldini olish uchun dastavval tuproq yuzasiga tuz, gips qatamlari yaqin turgan paykallarda sug'orish ishlarini rentabelli sug'orish madaniyatiga qat'iy amal qilgan holda va albatta qadimgi sug'orish ishlari yuzasidan to'plangan xalq qadriyatlarini samarali qo'llash orqali erishish mumkin. Ikkilamchi sho'rlanish va sho'rlanish yuz bergen dalalarda almashlab ekishni yo'lga qo'yish, sho'rlanish darajasini pasaytiruvchi ekinlarni ko'proq ekish, maxalliy o'g'itlar, chirindi, qoq kesak bilan dalalarni oziqlantirish yuksak samara beradi.

Botqoqlanish. Ushbu jarayon tabiiy holda kechgani kabi, sun'iy tarzda ham amalgam shadi. Sug'orma dehqonchilikda suvni keragidan ortiqcha ravishda sarf qilish natijada grunt suvi sathining ko'tarilib, yuzaga qadar yetishi tufayli vujudga keladi.

Cho'llanish. Ushbu tabiiy geografik jarayon iqlimning qurg'oqchil kelishi bilan bog'liq holda tabiiy kelib chiqishiga ega bo'lishi bilan birgalikda, inson omilining yerdan noto'g'ri foydanishi kabi sun'iy tarzda ham amalgam shadi mumkin.

Agroeroziya. Dehqonchilikda ekin maydonlaridan noto'g'ri foydanish tufayli yuzaga keladi. Agroeroziya ham eroziya kabi suv va shamol ta'sirida, inson omilining aralashuvi tufayli yuzaga keladi.

Shamol ta'sirida yuzaga keluvchi agroeroziya, shudgorlangan maydonlar bo'ylab tuproq yuza qatlaming uchirib ketishi tufayli yuzaga keladi. Agroeroziyaning suv ta'sirida yuz berishi, noto'g'ri sug'orish, qiya maydonlarni noto'g'ri shudgorlash tufayli shakllanadi. Ushbu holat jarlanish jarayonini keltirib chiqaradi. Natijada hosildor yerlar foydanishga yaroqsiz, unumsiz paykallarga aylanadi.

4-ilova

Vizual materiallar:



Amaliy mashg'ulotlar texnologiyasi

1-mavzu. Tabiiy geografik jarayonlar haqidagi bilimlar berish, fanning dolzarblik darajasi, maqsadi, vazifalari, predmeti, ob'ekti, o'rGANIsh darajasi va tarixi

1. Fanning maqsadi nimadan iborat?
2. Fanning vazifalari qanday masalalarning yechimiga qaratilgan?
 . Tabiiy geografik jarayonlar fani boshqa fanlar bilan aloqasi?

Blits so'rov savollari

1. Fanning maqsadi nimadan iborat?
2. Fanning vazifalari qanday masalalarning yechimiga qaratilgan?
3. Tabiiy geografik jarayonlar fani boshqa fanlar bilan aloqasi?

2- ilova

Amaliy mashg'ulot davomida bajariladigan topshiriqlar:

1. "Tabiiy geografik jarayonlar" haqidagi tushuncha o'rta asrlarda olimlar tomonidan tahlili.
2. Tabiiy geografik jarayonlarni dastlab ilmiy tarzda o'rGANish tahlili.
3. Tabiiy geografik jarayonlar bilan o'rgangan olimlar va ularning tahlilini bering. (1- ilova)

ilova

Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament

1. Guruhda ishlash va taqdimotni yozish - 30 min.
2. Ishning natijalarini taqdimot qilish – 20 min.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhni baholash - 30 min.

4- ilova

Guruuh bilan ishlash qoidalari:

Guruuhnning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhnin baholashda ishtirok etishlari lozim.

5-ilova

Guruhlarga topshiriqlar

1-guruuh

Glyatsiologik tabiiy geografik jarayonlarni kimlar o'rganganini tahlil qiling

2-guruuh

"Tabiiy geografik jarayonlar" fanini geologik nuqta'i nazardan o'rgangan olimlar haqida gapirib bering.

3-guruuh


"Tabiiy geografik jarayonlar" fanini geomorfologik nuqta'i nazardan turib o'rgangan olimlar haqida so'zlab bering.


6-ilova

Baholash ko'satkichlari va mezonlari (ballarda)	Guruhlar		
	1	2	3
1-topshiriq (1)			
2-topshiriq (1)			
3-topshiriq (0,6)			
Reglament (0,2)			
Nazorat savollariga to'g'ri javob uchun (0,1).			
Boshqalar tomonidan to'ldirilganligi uchun (0,1)			
Jami: 3 ball			

Ma'lumotlar asosida Klaster texnologiyasini to'ldirish

8-ilova





2-MAVZU :TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLARNING GENETIK XUSUSIYATLARIGA KO'RA SHAKLLANGAN GURUHLARI, ULARNING RIVOJLANISHIDA LITOLOGIK QATLAM, SEYSMIKLIK, TEKTONIK YORIQDORLIKNING ROLI

- 1.Tabiiy geografik jarayonlarning kelib chiqishiga ko'ra turlari va ularni tahlil qilish
- 2.Tabiiy geografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar

1-ilova

BLITS SAVOL

1. Denudatsion kuchlar nima?
- 2.Tasniflashning ahamiyati?
3. Geotektura qanday rel'ef formasi hisoblanadi?
4. Zilzila tufayli yuzaga keluvchi tabiiy geografik jarayonlarga nimalar kiradi?

2-ilova

Amaliy mashg'ulot davomida bajariladigan topshiriqlar:

1. I.G.Gerasimovning rel'ef yer yuzi formalrini o'lchamiga ko'ra necha guruhga ajratgan?
2. Geomorfologiklar tomonida tasniflash rel'ef ko'rinishlarini ajrating. (3-ilova)
3. Endogen va Ekvogen kuchlar ta'sirida shakllanuvchi genetik turlarni izoxlang
4. Tabiiy geografik jarayonlarning eng mukammal va ma'qul tasnifi kim tomonidan o'rganilgan va tahlil qiling

3-ilova

Nº	Rel'efning Genetik turlari	Qaysi rel'ef turlari vujudga keladi
1	<i>Megarel'ef</i>	Tekisliklar,
2	<i>Makrorel'ef</i>	Yirik vodiylar,
3	<i>Mezorel'ef</i>	
4	<i>Mikrorel'ef</i>	Barxanlar,
5	<i>Nanorel'ef</i>	

4-ilova

Mavzuga doir «Insert» usuli

Insert – samarali o'kish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa

materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizmi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot

(-) – men bilgan narsaga zid

(?) – meni o'yantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur

Tushunchalar	V	+	-	?
Tog'lar				
Plato				
Muhim botiqlar				
Tekisliklar				
Qirlar				

5-ilova

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlar taqdimotini baholaydi, mezonlar bo'yicha ballarni jamlaydi.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari	Maksimal ball	1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh	
Echimlar:	1,2					
-namuna og'irligini aniq hisoblash;	0,4					
-mutloq og'irlilikni to'g'ri topish;	0,4					
-o'rtacha og'irlilikni to'g'ri topish.	0,4					
Taqdimot:	1,4					
-javoblarni aniqliligi va tushunarligi;	1,0					
-har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar).	0,4					
Reglament	0,4					
Umumiylar yig'indisi	3,0					

3-MAVZU: HAVO HARORATINING KESKIN O'ZGARUVCHANLIGI, YOG'IN- SOCHINNING ISHTIROKIDA YUZA QATLAMLARINING NURASH VA ULARNING OQIBATLARI. MUNTAZAM VA VAQTINCHA OQAR SUVLAR KELTIRIB CHIQARADIGAN TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLAR, ULARNING TURLI KO'RINISH HAMDA OQIBATLARI

1. Nurash va uning oqibatlarini tahlil qilish.
2. Muntazam va vaqtincha oqar suvlari ta'sirida vujudga keladigan tabiiy geografik jarayonlarni tahlil qilish

1-ilova

Blits savoli

1. Uvalanish nima?
2. Qanday rangdagi tog' jinslar quyosh nurini ko'proq va kamroq yutadi?

3. Elyuviy, delyuviyalar nima va farqi ?
4. Nurash va uning sabablari haqida tushuncha bering.
5. Nurashning necha turi mavjud?
6. Fizik nurashi va uning xususiyatlari haqida so'zlab bering.
7. Tabiatda ximik nurash qanday sodir bo'ladi?
8. Nurash tabiatda qanday ahamiyat kasb etadi?

2-ilova

Amaliy mashg'ulot davomida bajariladigan topshiriqlar:

1. Nurash nima va qanday turlarga bo'linadi?
2. Fizik va ximik nurashlar qanday hosil bo'lishini tahlil qiling (3-ilova)
3. Biologik nurash qanday hosil bo'ladi va uning fizik, ximik nurashdan farqi?
4. Nurashning tabiatdagi ro'li va geografik tarqalishini tahlil qilin.

Vizual material

3-ilova

Nurash ekzogen jarayonlar turkumiga mansub bo'lib, u harorat ko'rsatkichining tebranishi, suv, shamol, muz, o'simliklar, hayvonot dunyosining mexanik, fizik yoki kimyoviy ta'sirida o'zgarishi natijasida bir xolatdan ikkinchi xolatga o'tishi va uvalanishi tufayli yuzaga keladi.

Nurashning fizik, ximik va biologik turlari mavjud.

Fizik nurash deganda, tog' jinslarining havo harorati ta'sirida (sutka yoki soatlar mobaynida keskin o'zgarishi tufayli) bo'laklarga ajralishi tushuniladi.

